***1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi***

1. Germaniyada yangi hukumat qachon favqulodda qonunni bekor qiladi?
A) 1890-yil B) 1888-yil
C) 1889-yil D) 1891-yil

2. Qaysi davrda O‘rta Osiyoning janubida sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik vujudga kelgan?
A) Eneolit davrida B) Bronza davrida
C) Mezolit davrida D) Neolit davrida

3. Xitoy hukumati nechanchi yilda Qo‘qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi?
A) 1755-yilda B) 1825-yilda
C) 1832-yilda D) 1829-yilda

4. Keyinchalik takomillashgan turi “Raketa” deb atalgan transport vositasini aniqlang.
A) Paroxod B) Samolyot
C) Avtomobil D) Parovoz

5. Yunon-rim sarkardalari hayoti haqida kitob yozgan tarixchini aniqlang.
A) Tit Liviy B) Plutarx
C) Tatsit D) Poliyen

6. XIX asda xonliklardagi madrasalarda qaysi kunlari ta’til bo‘lgan?
A) Chorshanba, payshanba
B) Shanba, yakshanba
C) Dushanba, seshanba
D) Yakshanba, dushanba

7. Dunyoni qayta bo‘lib olish yo‘lidagi birinchi urushni aniqlang.
A) Fransiya-Prussiya
B) AQSH-Ispaniya
C) Angliya-Fransiya
D) Fransiya-Italiya

8. Quyidagi qaysi davlatlar hukmdor nomidan kelib chiqqan?
A) Qoraxoniylar, Xioniylar
B) Eftallar, Kidariylar
C) Qoraxoniylar, Kidariylar
D) G‘aznaviylar, Eftallar

9. Yangi yerlarni kashf etish va o‘zlashtirish jarayoni kimning nomi bilan bog‘liq?
A) Xristofor Kolumb
B) Vasko da Gama
C) Bortolomeu Diash
D) Genrix Dengizchi

10. Movarounnahrda joylashgan aholi qadimdan qaysi tillarda so‘zlashgan?
A) Sug‘d, fors B) Sug‘d, turk
C) Sug‘d, arab D) Turk, fors

***2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi***

11. Oltin O‘rda qo‘shinini kim boshqargan?
A) Vazir B) Ulusbegi
C) Beklarbegi D) Bosqoq

12. Shoh Lalibeli ibodatxonasi qayerda joylashgan?
A) Songai B) Mali
C) Gana D) Aksum

13. Qaysi davlatda lirik she’rlar “Tomchi suvda ummonni ko‘rish kerak” tamoyili asosida yozilgan?
A) Xitoy B) Koreya
C) Yaponiya D) Eron

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Shashmaqom”ni nimaga qiyoslagan edilar?
A) Daryoga
B) Ummonga
C) Dengizga
D) Chinorga

15. Qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilingandan so‘ng yasoqni kimlarga to‘lay boshlashdi?
A) Rossiyaga B) Katta juz xonligiga
C) Kichik juz xonligiga D) No‘g‘ay xonligiga

16. Buxoro amirligining markaziy qismi hisoblangan Zarafshon vodiysida qanday shaharlar joylashgan?
A) Buxoro, Samarqand B) Shaxrisabz, Qarshi
C) Kitob, G‘uzor D) Termiz, Sherobod

17. O‘rta asrlarda Flandriya viloyati nima ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi?
A) Jundan matolar ishlab chiqarishga
B) Temir, tuz ishlab chiqarishga
C) Ot va qoramol yetishtirishga
D) Zig‘ir tolasidan surp ishlab chiqarishga

18. Xalq orasida katta obro‘ga erishgan Jon Boll kimning buyrug‘i bilan qamoqqa olingan?
A) Qirol B) Arxiyepiskop
C) Papa D) Kardinal

19. Doro I tomonidan bosib olingan Frakiya qayerda joylashgan edi?
A) Bolqon yarimoroli sharqida
B) Qora dengiz sharqida
C) O‘rta yer dengizining g‘arbida
D) Pireney yarimoroli g‘arbida

20. Qaysi hududlarda zardushtiylik kohinlari yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi mangu kurash haqidagi muqaddas qasidani kuylashgan?
A) Qadimgi Xorazm, Davan
B) Surxon vohasi, Qang‘
C) Baqtriya, Davan
D) Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida

21. O‘rta asrlarda Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy yonbag‘rida tashkil topgan davlatni belgilang.
A) Somoniylar B) G‘aznaviylar
C) O‘g‘uzlar D) Qoraxoniylar

22. Dastlabki xalqaro temir yo‘l qaysi shaharlarni o‘zaro bog‘lagan?
A) Manchester va Liverpool
B) London va Parij
C) London va Istanbul
D) Parij va Madrid

23. Qaysi tarixiy inshootda “To‘g‘rilik najotdir” degan shior oltin harflar bilan bitilgan?
A) O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida
B) Amir Temur haykalida
C) Temuriylar tarixi davlat muzeyida
D) Ezgulik arkasida

24. Qaysi rassom ijodida Rossiyaning boy tabiati va kishilarining murakkab ichki dunyosi aks ettirilgan?
A) M. A. Repan
B) L. N. Brusilov
C) S. F. Shedrin
D) M. I. Ivanov

25. Qaysi hukmdor saroyida o‘zbek milliy madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan namoyandalar ko‘p edi?
A) Madalixon
B) Umarxon
C) Norbo‘tabiy
D) Olimxon

***3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi***

26. German hukmron doiralari joylashib olmoqchi bo‘lgan hududlarni toping.
A) Kichik Osiyo, Suriya, Mesopotamiya, Falastin
B) Misr, Liviya, Eron, Gana
C) Tunis, Efiopiya, Kichik Osiyo, Suriya
D) Marokash, Tunis, Kichik Osiyo, Falastin

27. XVI asr Fransiya tarixiga oid noto‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.
A) Parij Yevropaning eng mashhur shahriga aylandi
B) Diniy urushlar tufayli shaharning rivojlanishi sekinlashdi
C) Ocharchilikdan minglab parijliklar vafot etdi
D) Parij Fransiyaning poytaxtiga aylandi

28. Amir Temur davlati tarkibiga kirmagan hududlarni aniqlang.
A) Xo‘tan, Sig‘noq
B) Sheroz, O‘rmuz
C) Laxor, Mo‘lton
D) Isfaxon, Qandahor

29. Qutbiddin Sadr va Muhammad Sadr madrasalari joylashgan shahar tarixiga oid ma’lumotni aniqlang.
A) Buxoro xoni Ubaydullaxon 1537-1538-yillarda ushbu shaharga yurish qilgan
B) Shahar dunyoda “Ming gumbaz shahri” nomi bilan ham mashhur
C) Amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari tufayli tez orada shahar aholisi soni 25-30 ming kishiga yetdi
D) Akademik A. Muhammadjonovning ta’kidlashicha shaharning nomi soy bo‘yidagi shahar, degan ma’nosini anglatadi

30. “Xiva aholisi o‘zining mashaqqatli mehnati bilan cho‘l-u biyobonni hosildor o‘lkaga aylantirgan”, ushbu jumlalar kimning qaysi asarida keltirilgan?
A) N. Vasilevskiy “O‘zbeklar Xorazmda”
B) N. N. Muravyov “Esdaliklar”
C) M. Yo‘ldoshev “Xiva xonligida feodal yer egaligi va tuzilishi”
D) Y. G‘ulomov “Xorazmning sug‘orilish tarixi”

31. Ochiq tabrik xat jildi sotish an’ana bo‘lgan davlat tarixiga oid ma’lumotni aniqlang.
A) Rus knyazlari yerlariga talonchilik bosqinlari uyushtirganlar
B) Qabila ittifoqi tepasida Prjemislovchilar xonadonidan bo‘lgan knyazlar turgan
C) Solnomachilarning yozishicha, knyazlikning afsonaviy asoschisi Piast ismli kambag‘al kishi bo‘lgan
D) Oltin pul (numisma) ko‘p asrlar davomida eng ishonchli xalqaro pul hisoblangan

32. Kimning tarixnavislik va tarjimonlik faoliyati O‘rta Osiyo hududidagina emas, balki XIX asr Sharq dunyosi madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan?
A) Munis Xorazmiy
B) Muhammad Rizo Ogahiy
C) Muhammad Yunus
D) Ahmad Donish

33. Qoraqalpoqlarning alohida bir xalq bo‘lganligi haqidagi manba qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
A) XVI asr oxirlariga
B) XV asr oxirlariga
C) XVI asr boshlariga
D) XVII asr o‘rtalariga

34. XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi tomonidan Rossiyaga chiqarilgan mahsulotlarni aniqlang.
1. kunjut; 2. gazlama; 3. qand-shakar; 4. paxta; 5. jun; 6. ipak
A) 1, 2, 3
B) 4, 5, 6
C) 2, 4, 6
D) 1, 3, 4

35. Quyida berilganlardan qaysi biri XVII asrda Angliya tarixida sodir bo‘lgan?
A) parlament vakolatining 6 yil qilib belgilanishi
B) sanoat to‘ntarishining tugallanishi
C) parlament qarori bilan qirol hokimiyati va lordlar palatasi bekor qilinishi
D) reformatsiya

36. Quyidagi qaysi inshoot boshqalariga nisbatan oldinroq qurilgan?
A) Sulton Murodbek madrasasi
B) Tillashayx masjidi
C) Hokim Oyim madrasasi
D) Hazrati Kalon Sohibzoda

37. Usmoniylar imperiyasining harbiy qudrati qachondan zaiflasha boshladi?
A) XVI asr boshlaridan
B) XVI asr o‘rtalaridan
C) XVII asr oxiridan
D) XVIII asr boshlaridan

38. Jaloliddin Manguberdi qaysi hududlarni birlashtirib, davlat tuzmoqchi bo‘ladi?
A) Kirmon, Sheroz, Isfahon
B) Ko‘niya, Jazira, Damashq
C) Kirmon, Fors, Isfahon
D) Jazira, Damashq, Misr

39. Eronda katta bosqinchilik urushlari natijasida ulkan imperiya tuzgan hukmdor vafot etgan yilda sodir bo‘lgan voqeani aniqlang.
A) Yevropa davlatlari Turkiyaga qarshi “Muqaddas liga” tuzdilar
B) Ahmadxon Afg‘oniston shohi deb e’lon qilindi
C) Hindiston hukmdori Avrangzeb Olamgir hukmronligi tugadi
D) “Qonunlarning buyuk to‘plami” deb nomlangan hujjat tuzildi

40. Jaloliddin Manguberdi tomonidan Gurjiston to‘liq egallangan yil quyidagi qaysi tarixiy voqea sodir bo‘lgan?
A) Mo‘g‘uliston, O‘rta Osiyo hamda Eronni XIII asrdagi tarixiga bag‘ishlangan asar muallifi tug‘ilgan
B) Nasaviy xizmat yuzasidan Iroqqa boradi
C) Buxoroning Torob qishlog‘ida bosqinchilarga va mahalliy mulkdorlar zulmiga qarshi qo‘zg‘olon boshlanadi
D) Chig‘atoy ulusi tashkil topadi